



O'QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY TARBIYANING O'RNI

Rasulov Bekzod O'ktamovich

Jizzax davlat pedagogika
instituti o'qituvchisi

Annatatsiya:

Ushbu maqolada muallif o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oilaviy tarbiyaning o'rne va ahamiyati haqida fikr yuritgan.

Kalit soz'lar:

Kitobxonlik madaniyati, kitob mutoalasi, oilaviy tarbiya, ota-ona na'munasi, kutubxona.

Yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda kitob o'qish ko'nikmasi shakllansa, kamoloti yo'lida qolgan barcha amallarni kitobning o'zi o'rgatadi. Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oilaviy tarbiyaning orni beqiyos. Har bir farzand shaxs sifatida shakllanar ekan, dastlabki tarbiyani oiladan oladi. Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, oila bola uchun eng muhim tarbiyaviy muhit bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, tasavvur va eng asosiysi dunyoqarash shakllanadi. Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishi oila tarbiyasi asosida paydo bo'ladi.

Farzand barcha axloqiy xislatlarni dastlab oiladan oladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Demak kitobxonlik madaniyati ham bolaning o'z oilasi a'zolari ko'magi va ta'sirida yuzaga keladi hamda shakllanadi. Kitobxonlik madaniyatining qay darajada rivojlanishi oila a'zolarining kitobga, kitob mutoalasiga bo'lgan munosabatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-ona farzandlariga bu borada o'rnak bo'lishi lozim.

Bugungi kunda oilada kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishni to'g'ri yo'lga qo'yishda birmuncha kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, ota-onalarning kun bo'yi ish bilan band bo'lishi, yosh ota-onalarda pedagogik-psixologik bilimlarni yetishmasligi, farzandlarining internet tarmoqlaridan foydalanishlarini nazorat qilmaslik va shunga o'xshash bir qancha salbiy holatlar uchramoqda. Bunday salbiy holatlarning oldini olish uchun ota-ona oilada bir qancha vazifalarni bajarishi lozim. Jumladan, oilada buyuk ajdodlarimizning kitob va kitobxonlik madaniyati haqidagi fikrlaridan foydalanib, ularga amal qilgan holda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish lozim. Masalan, axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiy kitob haqida shunday deydi: "Ey, aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan xoli hamrohdur. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik etmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdiki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan

senga shunday fayzli foydalar etadiki, bunday foydani odamlardan topa olmasan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar etadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham "kitob aql qal'asidir".

Ota-onalar farzandlarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun nimalarga e'tibor qaratishlari lozim? Birinchidan, har bir farzand oilada ota yoki onaga taqlid qilib ulg'ayadi. Demak, ota-onalar birinchi navbatda o'zlari kitobxon bo'lishi lozim, ikkinchidan, oilaviy suhbatlarda hikoyalar, asarlar tahlilidan foydalanishlari lozim, uchinchidan, katta yoshdagi oila a'zolari yoshlarga kitob sovg'a qilishni yo'lga qo'yishlari lozim, natijada oila o'zining kichik bo'lsa ham kutubxonasiga ega bo'ladi. Bu o'z navbatida yoshlar qalbida kitobga bo'lgan mehrni uyg'otadi. Ota-onalar badiiy asar tanlashda farzandining yosh va fiziologik xususiyatlari, ruhiy-ma'naviy dunyosi, qiziqish va intilishlar ko'lamini nazarda tutmas ekan, har qanday kitobsevar ota-ona bu borada ijobiy yutuqlarga erisha olmaydi. Ko'rinadiki, mutolaa madaniyatining ham o'ziga xos me'yor va talablari mavjud. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, oilaviy kitobxonlik madaniyatiga ega bo'lish uchun quyidagi tavsiyalarni e'tiborga olish nazarda tutiladi:

- yosh avlodga kitob mutolaasida kattalarning o'rnak bo'lishi;
- oila a'zolarining yoshiga va qiziqishlariga e'tibor bergan holda kitob tanlash madaniyatiga ega bo'lishi;
- muayyan vaqtlarda oila davrasida navbatma-navbat kitob o'qib berishni hamda hikoya va asarlar tahlilini yo'lga qo'yish;
- xotirani kuchaytirish ahamiyatiga ega bo'lgani boisidan farzandlarning she'r yodlashiga alohida ahamiyat qaratish;
- har bir farzandning yosh va xarakter xususiyatini, ruhiy-ma'naviy dunyosini nazarda tutgan holda kitob taqdim qilish;
- o'qilgan asar mazmun-mohiyati, qahramonlar xarakter-xususiyati, ijodkor yondashuvi, olingan taassurotlar bo'yicha oilada davra suhbatini tashkil qilib borish;
- o'z vaqtida va talab darajasida mutolaa qilgan kitobxon farzandni alohida rag'batlantirish;

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinadiki, ma'naviy barkamol kitobxon avlod tarbiyasida oila muhim va mustahkam poydevor. Shu bois jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasidagi har qanday faoliyatda oila bilan hamohang, hamfikir ish yuritish ko'zlangan maqsadlarga erishishga munosib zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Inomova. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. T., 1999 y.
2. Xasanboyev, X.Toraqulov, I.Alqarov, N.Usmanov. "Pedagogika". "Fan va texnologiya". 2010 y.
3. R.Mavlonova, O.To'rayeva., K.Xoliqberdiyev.Pedagogika.O'qituvchi. 2008y.
4. Rasulova, D. (2020). QIZLARNI SOG'LOM TURMUSH TARZI ASOSIDA TARBIYALASHNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Uktamovich, R. B., & Rakhmatullaevna, R. D. (2019). FEATURES OF STUDYING THE LEVEL OF PSYCHOLOGICAL READINESS OF A SEVEN-YEAR-OLD CHILD'S ADAPTATION TO SCHOOL. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
6. Rasulova, D. (2020). YOSH OTA-ONALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Расулова, Д. (2020). Психологическая диагностика личностных и эмоциональных аспектов суицидального поведения подростка. Архив Научных Публикаций JSPI.

8. Каршибаева, Г. А., Расулов, Б. У., Расулова, Д. Р., & Эшмуратов, О. Э. (2018). Психологическая диагностика личностных и эмоциональных аспектов суицидального поведения подростка. Образование и воспитание, (2), 72-73.
9. Rasulova, D. (2020). САМАРАЛИ ТАЪЛИМ-ИЖОДИЙ ЁНДАШУВ МАҲСУЛИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
10. Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Архив Научных Публикаций JSPI.
11. Davurova, G. (2020). Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.